

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 7 (67276)
2020-yil 17-fevral

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustidan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

ISSN-2010-6092

5 TASHABBUS IMKONIYAT



1-tashab-
bus yoshlarni
musiqa, rassom-
lik, adabiyot, teatr
va san'atning boshqa
turlariga qiziqishlarini
oshirishga, iste'dodini
yuzaga chiqarishga
xizmat qiladi.



Aslida, rassomlik, musiqa, teatr, adabi-
yot va san'atga qiziqmaydigan bolanig
o'zi bo'lmaydi. Shu sabab, Yurtboshimiz
tomonidan ilgari surilgan «5 muhim
tashabbus»ning birinchisiga oid qator
vazirlilik va tashkilotlar tomonidan amal-
ga oshirilgan ishlar bo'yicha matbuot
anjumani bo'lib o'tdi.

Unda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Yosh-
lar ittifoqi tomonidan Respublikamizdagи


ta'lim maskanlarida «Orzumdag iinson bilan
uchrashishni istayman» loyihasi tashkil
etilgan. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan esa
umumta'lim maktablarida 2 108 ta havaskor
yoshlarni teatr studiyalari ochilgan. Hozirgi
kunda ushbu teatr studiyalarga 198 ming
698 nafar o'quvchilar jalb etilgan. Ular to-
monidan maktab faoliyati, o'quvchilarning
odob-axloqiga oid sahna ko'rinishlari ijro
etilmoqda.

Bugungi kunga qadar mazkur tashabbus
doirasida umumta'lim maktablarida qo'shimcha
2 241 ta bepul to'garak tashkil etilib,
ushbu to'garaklarga 5 ming 630 nafarga
yaqin o'quvchilar qamrab olingan.

E'tibor bergan bo'lsangiz, bu barcha loyiha
va tashabbuslar Siz aziz o'quvchilarning
komil iinson, yetuk mutaxassis bo'lib yeti-
shishingizga qaratilgan. Demak, siz ham
5 tashabbusda faol bo'lishni unutmang!

PREZIDENT MUROJAATNOMASI – DASTURULAMALIMIZ

Yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kash etgan Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi xalqimizning kelajagini, farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kash etadi. Shuning uchun har birimiz ushbu Murojaatnomani qunt bilan o'qib o'r ganmoqdamiz. Unda Davlatimiz rahbari ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish maqsadida qator chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ta'kidladilar.



Yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish 2020-yilda 25 foizga, yaqin kelajakda esa 50–60 foizga oshirilishini alohida e'tirof etdilar. Kelgusida tayanch, kasb-hunar maktablari, texnikumlar tashkil etilishi belgilab qo'yilgani yoshlarni ilm-u ma'rifatga oshno qilishdek xayrli ishga keng yo'l ochilayotganligidan dalolat beradi.

Xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan oliygochlarda o'qish uchun nomzodlar ko'ssatilishi, davlat grantlari ajratilishi qizlarimizning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi, shubhasiz.

Jumladan, bizning maktabimizda o'qituvchi va o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, yangi innovation texnik bazaning o'rnatalishi o'quvchilarimizning oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlanishlariga zamin yaratdi. O'quvchilarning talabiga ko'ra oliygochlarga kirish imtihonlari bo'ladijan fanlardan to'garaklar tashkil etildi. Barcha fan o'qituvchilar yangi pedtexnologiyalar asosida AKTdan foydalangan holda yoshlarga saboq bermoqdalar. Maktabimiz direktori Jahongir Madaminov tashabbusi bilan kuzatuv kameralari hamda har bir sinf xonasiga televizor o'rnataldi.

Bunday sharoit va imkoniyatlar biz pedagoglarning kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shmaqda. 2019–2020-o'quv yilida maktabimizni 60 nafar o'quvchi tamomlaydi. Biz ustozlar bitiruvchilarimizning o'zlarini xohlagan oliy ta'lim talabasi bo'lislari uchun bor bilimimizni bermoqdamiz. Mashg'ulotlarimizda 9–11-sinf o'quvchilariga Yurtboshimizning Murojaatnomada bildirgan fikrlarining mazmun-mohiyatini anglatib, ularning oliy ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirmoqdamiz.

Hikmatoy SOTIBOLDIYEVA,
Farg'onan viloyati, Beshariq tumanidagi
29-umumta'lum maktabining ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

TADBIRLARGA BOY OY

Maktabimizda navoiyxonlik va boburxonlik oyligi o'zgacha tarzda o'tdi. «Ikki buyuk siymo hamisha barhayot» mavzusidagi tadbirimizga ko'plab mehmonlarni taklif qildik. Jumladan, shoir Davron Rajab, «Milliy tiklanish» partiyasi faoli Akmal Ro'zitoyev, «Turon» kutubxonasi xodimlari ishtiroy etishdi. Ijodiy uchrashuvda biz 5-«B», 5-«V» va 7-«V» sinf o'quvchilarini faol qatnashib, Navoiy va Bobur ijodidan namunalilar ijo etdik. Mehmonlar esa ikki buyuk mutafakkir shoir hayotiga oid qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab berishdi. Bu allomalarimizning asarlari biz yoshlarni Vatanni, ustozlarni, ota-onani qadrash, kitobni sevishga undashini ta'kidlashdi. Tadbirni tashkil etishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari Dilnavoz Rahmatova va ona tili fani uslubiy birlashmasi o'qituvchilar katta jonbozlik ko'satishtdi.

Madinabonu ERGASHEVA, Jahongir ERDONOV,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lum maktabining
7-«V» sinf o'quvchilarini

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 136-umumta'lum maktabida ham ona tili va adabiyot fani ustozlari Nilufar Abdurakimova va Zulxumor Qayumova tomonidan buyuk bobokalonlarimiz tavallud ay-yomlariga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda she'riyat shaydolari tomonidan yod olingen g'azallar, ijo etilgan sahna ko'rinishlari, jonli ijo etilgan qo'shiqlar barchada katta taassurot qoldirdi. Shu kuni 10-A» sinfi o'quvchisi Madina Rahmatullayeva she'ri yozish bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni egallagani bois, uni tuman xalq ta'limi bo'limi maqtov yorlig'i va esdalik sovg'asi bilan ham taqdirladi.

Shohista TOJIYEVA



1-«V» SINFIDA HAM BAYRAM BO'LDI

Sharqning ikki buyuk siyososi Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kunni jazzi bolajonlar ham bayram qilishdi.

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 265-umumta'lum maktabining 1-«V» sinf o'quvchilarini sinf rahbarlari Dildora opa Abdurazimova boshchiligidagi o'tkazishgan tadbirda bobolarimizning g'azal va ruboilyaridan namunalalar aytishdi. Bolajonlar tomonidan ijo etilgan «Tandir qurolmagan, uy qura oladimi?» rivoyati asosidagi sahna ko'rinishi esa barchani ta'sirlantirib yubordi. Bayramda Nuriddinxo'ja Shukurxo'jayev, Dilsoraxon Saidkozimova, Abrorxo'ja Tohirova, Hilolaxon Tohirova kabi o'quvchilar faol ishtiroy etishdi.

Birgina tadbir orqali Yurtboshimiz ilgari surgan besh tashabbusning ijrosini amalga oshirishni maqsad qilgan o'quvchilar murodlariga yetishdi. Hatto ustozlari tomonidan kitob va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Boshlang'ich sinfdanoq buyuk ajodolarimizga ehtirom ko'rsatgan o'quvchilarning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarini tilab qolamiz.

O'z muxbirimiz



MUSIQACHI BO'LAMAN

Onam yaqinda katta opamga Ulug'bek Hamdamning «Sabova Samandar», kichik opamga sevimli yozuvchi bobomiz Xudoyerdi To'xtaboyevning «Quyonlar saltanati», menga esa «Odob tarbiyasi» kitobini olib keldilar.

«Odob tarbiyasi» kitobi 4 qismdan iborat ekan. Ayni kunlarda kitobning 3-qismini o'qishni boshladim. Shuningdek, «Tong yulduzi» gazetasini ham katta qiziqish bilan o'qiyimiz. Tengdoshlarimning yutuqlaridan quvonaman, havas qilaman.

Men ham darslardan so'ng shahrimizdag 9-bolalar musiqa va san'at matabiga qatnayman. Hozir musiqa matabining 2-sinf o'quvchisiman. Pianino yo'nalishi bo'yicha ustozim Lola Yo'ldoshevadan kuy chalishni o'rganyapman. Kelajakda sozanda bo'lismaymagan, qurib qolaman.

*Iroda JO'RAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
38-umumta'lum matabining 4-«A» sinf o'quvchisi*

OCHIQ DARSGA «5» BAHO

- Meni yema, Ayiqvoy, senga bir misol aytaman.
- Qani, ayt-chi, agar to'g'ri yecha olsam, seni qo'yib yuboraman...

Anglaganeningizday, bu «Bo'g'irsoq» ertagining matabimizda o'tkazilgan ochiq darsdagiga yangicha sahna ko'rinishi.

Yaqinda o'quv dargohimizning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shahnoza opa Toshmuhammedova rahbarligidagi 3-«B» sinfida

**«Matematika – fanlar ichra shoh,
Uning sirlaridan bo'ling ogoh»**

shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi. Besh tashabbus loyihasi asosida tashkillashtirilgan bu darsga mohir ustoz meni yosh muxbir sifatida taklif qildilar. Darsni kuzatar ekanman, o'qituvchining adabiyot, ingliz tili, geografiya kabi fanlarni umumlashtirib o'tgan mashg'ulotlariga tan berdim. O'quvchilar bilan barobar turib ishlayotgan sinf rahbarini ko'rib, logan Gytening «Yosh Verterning iztiroblari» asaridagi «Balalardek o'ynamasangiz, balalarni tushunmaysiz», degan fikri yodimga tushdi.

Dars davomida Muslima Rustambekova va Rahmatillo Husanov matematik amallarni ingliz tilida aytib berishdi. Ozodbek Asqarov va Ruxshona Ortiboyeva esa she'r aytishni qoyillatishdi. Shundan so'ng, sahnaga sotuvchi va ikki xaridor qiyofasidagi o'quvchilar chiqishdi. Hisob-kitobni yaxshi bilmagan xaridorni sotuvchi osongina aldbab yuborgani sahna ko'rinishi orqali ko'satib berildi.

Tadbir yakunida matabimiz rahbari Gulnoza Ergasheva va o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari Nargiza opa Zoidova ustoz va o'quvchilarga ochiq dars uchun a'lo baho qo'yishdi.

*Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169-umumta'lum matabining 10-«A» sinf o'quvchisi*



OTA-ONANGIZ BILAN O'QING!

SINF RAHBARI

Maktabda o'zaro kelisholmay mushtlashgan ikki bolakayni direktorning xonasiga olib kirishdi.

Maktab rahbari mushtumzo'rlarning sinf rahbarini chaqirtirdi. Aksiga olib, ustoz o'quv seminariga ketgan ekan. Oradan bir soatlar chamasi vaqt o'tib, sinf rahbari matabga kirib kelganida, har ikki o'quvchining ota-onasi uni kutib turardi... Bo'lgan voqeadan bexabar ustoz ota-onalarning dashnomalarini, kamiga mataba rahbaridan ham dakki eshitishi turgan gap. Qani, o'ylab ko'ring-chi, nahotki bu voqeada sinf rahbari aybdor bo'lsa...

Men matabda o'qib yurgan kezlarimda, sinf rahbarimiz Oysha opa Abdurauanova bizga rus tilidan saboq berar edilar. O'tish davrimiz bo'lgani uchunmi, sindoshlarim juda sho'x edi. Hech bir o'qituvchi bizning sinfga rahbarlik qilishni istamagan bir paytda Oysha opa mas'uliyatlari vazifani o'z zimmalariga olgan ekanlar. Oradan bir yil o'tar-o'tmas, sinfimiz matabda eng a'lochi, peshqadamlar qatoridan joy olgandi... Ha, u paytlar boshqacha edi-da, deysizmi? Yo'q, adashasiz, biz ham siz singari bola bo'lganmiz. Kimdir koptok tepib derazani sindirsaga yoki o'g'il bolalar bir-biri bilan mushtashib qolishsa, o'zaro hal qillardik, ota-onalarimizni tezda chaqirib kelmasdik...

Bir kuni matabga qizimni olib kelsam, yoqasi g'ijim, ko'yagli shimidan tashqariga chiqib ketgan 9-sinf o'quvchisi (buni keyinroq bildim) yo'lakda o'qituvchisi bilan shunaqangi gap talashyaptiki, hayratdan yoqa ushladi. Sinf rahbari uning onasi tengi bo'lsa kerak, chamamda.

– Nega matabga krossovka kiyib kelding? Hozir direktor ko'rib qolsa, meni ko'yidi.

Bu e'tirozlarga javoban o'quvchining aytayotgan gaplarini yozmay qo'ya qolay... Nahotki, sizning matabga kiyib kelgan kiyimingiz, oyog'ingizdagli krossovkangiz uchun ham sinf rahbarining gap

eshitsa? Nahotki, mataba formasida kelish shunchalar qiyin bo'lsa? Yoki boshqa bir holatni olaylik: darslik olib kelmagani, kundalik tutmagani, sindosh bilan mushtashgani, deraza sindirgani, koptokni teshgani, parta usida yugurgani uchun... Eh-he, bunday «uchun» larning adog'i ko'rinxaydi. Sizning yomon xulq-atvoringiz uchun matabda direktordan, boz ustiga, ota-onangizdan telefon orqali eshitayotgan SINF RAHBARINGIZ oilasi a'zolari uchun qadrlar inson ekanligini unutmang. Unga atalgan iliq gaplariningizni faqat «O'qituvchilar kuni»da emas, balki har kuni aytishdan charchamang. Uni xursand qilish

uchun har kuni nimadir qiling. Bu oddiy tartib-qoidaga amal qilib, o'z vaqtida o'qib-o'rgansangiz, bas.

Maqola yuzasidan esa fikr-mulohazalariningizni kutib qolamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



AYBDORMI?

BIR MAKTABNING

Buxoro viloyati,

G'ijduvon tumanidagi 6-umumta'l'm maktabining

o'quvchilaridan tortib ustozlarigacha bizga muntazam ravishda qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqidagi maktublari va ijod namunalarini yo'llashadi.

Bugun sizni mazkur ta'l'm dargohi bilan yaqindan tanishtirish niyatidamiz.

MUVAFFAQIYAT SIRLARI

To'qqiz yuzga yaqin o'quvchilar ta'l'm-tarbiya olayotgan bu bilim dargohida Gulshod Barotova, Shahlo Hasanova, Surayyo Jumayeva kabi o'z kasbining fidoyilar mehnat qilishmoqda. Adiba opa Mahmudova esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bosh-qosh. O'quvchilarining qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlari haqida gap ketganida esa, avvalo kuni kecha 6-sinf o'quvchisi Umidjon Jabborov va 9-sinf o'quvchisi Gulchiroy Boboqulova Italiyaning PISA universiteti bilan hamkorlikda matematika fani bo'yicha o'tkazilgan olimpiada faxrli o'rnlarni egallashganini ta'kidlamoqchimiz. Maktab faxriga aylangan yosh sportchilardan 7-«A» sinf o'quvchisi Javohir Jo'raqulov va Shahrizoda Muzaffarova, 8-«D» sinf o'quvchilari Ruxsora Rasulova, Zarnigor Mirzayeva, Yorqin Ashurov, 10-«B» sinf o'quvchisi Laziz Nasimov, Shahina Abdullayeva turli musobaqalarda yuqori o'rnlarni egallab kelishmoqda.

10-«D»

sinf o'quvchisi Matluba Abdurahmonova esa ijodkor o'quvchilardan biri ekan. Tahririyatimizga yo'llagan maktubida u o'z maktabi haqida faxrlanib, quydagilarni yozibdi:

— Maktabimiz tumandagi eng ilg'or ta'l'm maskanlarından biri. Har bir darsimiz bahs-muno-



zaralarga boy, qiziqarli tarzda o'tadi. Darslardan so'ng turli to'g'araklarda mashg'ulotlar o'tamiz. Biz ham ustozlarimizning mehnatalarini oqlash harakatidamiz. Maktabdoshlarim fan olimpiadalarida yuqori o'rnlarni egallab, sport musobaqalarida ham yetakchilik qilishmoqda. «5 tashabbus» loyihasi asosida respublika miqyosida o'tkazilgan tadbirda ham viloyat miqyosida 1-o'rinni qo'lga kiritdik. Fransiya elchixonasi tomonidan har yili o'tkazilayotgan «Frankofoniya» forumida ham birinchilikka sazovor bo'lib, ushbu davlatga bepul yo'llanmani qo'lga kiritdik.

Yuqoridagi fikrlarni o'qib, ushbu ta'l'm maskanida erishilayotgan muvaffaqiyatlarning siri ahillik va burchga sadoqatda ekanini anglagan bo'lsangiz kerak. Demak, o'qituvchilar o'z vazifasini sidqidildan bajara-

Biz bu har sohada ilg'orlikka intilayotgan dargoh va uning ustozlari bilan yuzma-yuz ko'rishmagan bo'lsak-da, ushbu maqolani tayyorlash davomida o'zaro qalban yaqinlikni his etdik.

yotgan, o'quvchilar esa ustozlari mehnatini oqlashga intilayotgan bu maktabning nomi yuksalaveradi.

Sayyora QODIROVA



TARIX QA'RIDAGI IKKI XAZINA



Sarlavhadagi go'zal nom ostida o'tkazilgan tadbir Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi akademik litseyda bo'lib o'tdi.

Unda ta'kidlanganidek, shu kunlarda yurtimida tavallud ayyomlari keng nishonlanayotgan Hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur xalqimizning ikki xazinasidir. Tadbirni litseyning til va adabiyot kafedrasи mudiri Go'zal Rahmanova olib berdi. Madaniy-ma'rifiy kechaga R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchilari tashrif buyurib, tengdoshlari tayyorlagan bayramni tomosha qilishdi. Tadbir mehmoni madaniyat markazi xodimi Suhrob Jumaniyozov esa o'z chiqishida o'quvchilarni hamisha boy adabiy merosimiz bilan faxrlanib yashashga chorladi.

O'z muxbirimiz

SPEKTAKL TOMOSHASIGA BORDIK

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi o'quvchilari ham O'zbek Milliy akademik drama teatrinda namoyish etilgan Alisher Navoiy spektaklini tomosha qilishi.



Shuningdek, teatrning taniqli aktyori Rixsilla Abdullayev akademik litseyda o'quvchilarning tayyorlagan bayram dasturiga taklif qilindi. Bobolarimiz hayoti va ijodini hikoya qiluvchi videooroliklar namoyishi barchada katta taassurot qoldirdi. Alisher Navoiy va Bobur g'azallaridan ifodali o'qigan o'quvchilarning mahoratini ko'rgan aktyorimiz ularni chin dildan samimiy olqishladi.

Odina YO'LDSHEVA

THE AUTHOR OF 400 POEMS...

*Shoh va shoir
Zahiriddin
Muhammad
Boburga
bag'ishlangan*



7-«D» sinfdagi mashg'ulotimni quyidagi ruboyni yod aytish bilan boshladim.

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
Organgali ilme tolibi ilm kerak.

Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.

Faoq o'quvchilardan Feruzaxon Muhammordova o'zi tayyorlab kelgan inglizcha matnni yoddan aytib berdi.



Matndagi yangi so'zlar ma'nosini Yoqutxon Murodova, Xushnoza Abduvahobova, Elmurod Islomov, Abdug'ofer Abdulahadov kabi o'quvchilar birinchilardan bo'lib aytib berishdi.

Rubai – ruboy
Dynasty – sulola
Legatee – voris

Ghazal – g'azal
Founder – asoschi

So'ngra, sind o'quvchilari uch guruha bo'lingan holda buyuk bobokalonimiz hayotiga oid qiziqarli ma'lumotlarni galma-galdan aya boshladilar.

– Bobur descended from two great warriors. Amir Temur, the Turkish hero from his father's side and Changiz Khan, Mongol hero from his mother's side.

– His father was Umar Shaikh Mirzo, the ruler of Fergana.

– Now we have more than 400 of his poems. More than 231 of them are rubais.

Guruuhlar o'tasidagi bellashuv buyuk bobomizning g'azal-u ruboylari yod aytigan bahr-u baytga ulanib ketdi.

Dilbarxon BOBONAZAROVA,
Farg'on'a viloyati, Besharig
tumanidagi 42-umumta'llim
maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Many – for countable nouns
Much – for uncountable nouns

We cannot use much and many in positive sentences.

I have many friends.

I drink much water.

We have to use with these words:

very, too, so, as, how, rather

I have too many friends.
I drink so much water.

We can use much and many in negative sentences:

I do not have many friends.
I do not drink much water.




«TONG YULDUZI» DA HUQUQ DARSI

Aziz o'quvchilar, siz ota-onangizning, kattalarning eng yaqin ko'makchisi, dastyorisiz, do'kondan kundalik iste'molga zarur bo'lgan mahsulotlarni olib kelishga sizni yuborishlari, shubhasiz.



Ba'zan siz sotib olgan turli oziq-ovqatlarning (sutli mahsulotlar, sharbatlar) iste'molga yaroqlilik muddati eskirib qolgan bo'ladi. Shunday vaziyatda agar sotuvchi o'z xatosini ixitiyoriy ravishda to'g'rilashdan bosh tortsa, kimga murojaat qilish kerakligini bilasizmi? Yoki jamoat transportida sizga yo'l haqining qaytimini qaytarishmasha-chi? Bu kabi vaziyatlarga tushib qolsangiz, o'z haq-huquqingizni talab qiling. Buning uchun esa bolalikdanoq qonunlarni yaxshi bilishingiz kerak bo'ladi.



Xo'sh, qonun o'zi nima? Keling, bugun huquqshunoslik fanidan olgan bilimlarimizni boyitishga harakat qilib, qonun so'zining qanday ma'noni anglatishini bilib olaylik. Qonun so'zining 1-ma'nosi – zaruriy barqarov bog'lanish, munosabat degan ma'nolarni anglatadi: Tabiat qonunlari, Tib qonunlari, Nyuton qonuni, Tafakkur qonunlari. 2-ma'nosi – hamma uchun majburiy bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida, ana shunday munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir: Qonunlar to'plami, Qonun chiqaruvchi organ va hokazo.

Tug'ilganingizda ism-sharif qo'yilishi, voyaga yetguningizcha ota-onangiz g'amxo'rligi, maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishingiz, maktabda bepul ta'lim olishingiz, buvi-bobongizning nafaqa puli olishi – barcha-barchasi qonunda belgilab qo'yigan.



Davlatimizning asosiy qonuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya huquqiy hujjat bo'lib, davlatimizning barcha qonunlariga asos sanaladi. Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Oilada, maktabda, ko'cha-ko'nda, mahallada, o'zaro munosabatlarda hamisha qonunlarga rioya qilinadi. Qonunbuzalar, albatta, jazolani.

Nodira NAZAROVA

Lesson 7

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

MUCH AND MANY

Synonyms of much:

A lot of _____
A great deal of _____
A good deal of _____
Plenty of _____



Synonyms of many:

A lot of a great deal of _____
A good deal of _____
A good many of _____
Plenty of _____
A number of _____



A good of _____

A great number of _____

Lots of _____

Note: we can use all synonyms in positive sentences as well.

Complete the sentences.

- _____ people drive too fast.
- We did not spend _____ money.
- We've lived here for _____ years.
- Did you eat _____ cheese for breakfast?

Mohira RAHMATOVA,
the teacher of school № 274, in Yunusabad
district, Tashkent region



SEN QISHNING ERKATOYI

Mittigina qorparcha,
Osmonlarni kezdingmi?
Yo'ling olismi ancha?
Havo sovuq, sezdingmi?

Ha, bilaman, kichkintoy,
Senga sovuq sezilmas.
Izg'irinda qolsang ham,
Aft-angoring buzilmas.

Momiqqina qorparcha,
Sen qishning erkatoi.
Ishonaver, sensiz hech,
Uning yo'qdir chiroyi.

Oppoqqina qorparcha,
Yumshoqqina qorparcha.

Muhammadali SHOMURODOV,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 35-umumta'lim
maktabining 2-sinf o'quvchisi

Bolalikka qaytgim keladi. Jo'shib qo'shiq atygim keladi. Bu voqeа o'smirlik davrimda, ayni o't-olov, sho'x, yerga ursa, ko'kka sapchiydan paytlarim sodir bo'lgan edi. Garchi shaharda tug'ilgan bo'lsam-da, bolaligim bobomlar xonadonida – qishloqda o'tgan. O'sha 60-yillarda qishloq bolalari umrining aksariyat qismi mehnatda o'tardi. Bo'sh vaqtimiz juda kam bo'lardi. Darsdan keyin meva, paxta terimi, g'o'za yaganasi deysizmi, qo'ying-chi, qishloqda nima ko'p, yumush ko'p bo'ldi. Xonadonlardagi pilla terimidan so'ng paxta yig'im-terimida uch oylab dalada qolib ketardik.

Mana, bugun yoshim bir joyga borganda, bolaligimda sodir bo'lgan bir voqeani sizlarga hikoya qilib bermoq-chiman. Darsdan keyin biz bolalarni kolxozi bog'iga, olma terishga olib chiqishdi. Juda yaxshi mehnat qildik, qaytayotib, do'stim Ziyovuddin ikkимизнинг fikrimiz buzilib, kolxozi bog'iga o'g'rilikka kirdik. Avval chelaklarimizni sara olmaga to'ldirdik. Do'stim, bo'ldi ketdik, qo'iga tushib qolmasimizdan keta qolaylik, deya qistardi. Endi uya qaytamiz

MAKTABDA SHE'RIYAT BAYRAMI

**Har yili fevral oyida
mektebimizda o'tkaziladigan
«Adabiyyot kunlari»ni o'quvchilar
rim intiqlik bilan kutishadi.**



INTILGANGA TOLE YOR

Orzularga erishmoq uchun,
Faqat olg'a tashlangiz qadam.
Yuksaklikdan cho'chimang aslo,
Intilmoqlik zarurdir har dam.

Qalbingizda so'nmasin ishonch,
Hech bir to'siq etolmasin kor.
Izlanishdan charchamang sira,
Intilganga tole bo'lar yor!

Dostonbek SHERMATOV,
Namangan viloyati, Is'hoqxon
Ibrat muktab-internatinining
8-sinf o'quvchisi

Maktabimiz rahbari Dilfuza opa Nabiyevadan tortib barcha o'qituvchi-yu o'quvchilarining adabiyyotga ixloslari baland. «Buyuklar yodi ila yashaymiz mu-dom» nomli tadbirimiz davomida o'quvchilar Navoiy bobomiz 51000 misradan iborat «Xamsa» asarini ikki yilda yozib tugatganini eshitib, hayratlanishdi:

«Sab'ayi-sayyor»dan ko'p hikmat oldim,

«Hayrat-ul abror»dan hayratda qoldim.

«Lison ut-tayr»dan dil sirim bildim,

Navoiyni o'qidim, o'zni tanidim, deya she'rlar o'qishdi.

Shoh va shoir Bobur bobomizning ruboilyaridan o'qib mushoiraga kirishgan yosh adabiyyotshunoslarimga hatto ustozlar ham tan berishdi.

She'riyat bayrami yakunida o'quvchilar bir ovozdan ulug' boboramiz nomlarini qalblarida mudom saqlashga va'da berishdi.

Davrlar o'tar, masofa ortar,

Yurakka yaqinlab boradi bu nom.

Har lahma hikmat yodimni tortar,

Buyuklar yodi ila yashaymiz mudom.

Xosiyat MATYOQUBOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyyot fani o'qituvchisi



deb turganimizda, bog'ning qorovuli Maxsum aka kelib qoldi. Chelakdagи olmalarimizni olib qo'yib, yuzimizga chunonam tarsaki tushirdiki, ko'zimizdan o'chaqnab ketdi.

Garchi Maxsum aka do'stim Ziyovuddinga qarindosh bo'lsa-da, unga yon bosmadi, ikkimizni birdek jazoladi. Agarda shu ishimizni yana takrorlasak, bizni maktab-dan haydatishini, otanolarimizni sharmanda qildirishini aytib, uya qo'yib yubordi. Maxsum aka urush ko'rgan, ko'ngli toza inson edi-da. O'sha kuni do'stim mendan juda xafa bo'ldi. Men esa o'sha kungi xunuk voqeа eng oxirgisi bo'lishini takror-takror ayt-dim. Agar o'sha kuni mana shunday jazo olmay, osongina qutulib ketganimizda, bu hol yana takrorlangan bo'larmidi?! Qisqasi, har ikkimiz uchun ham bu voqeа bir umrlik

saboq bo'ldi. Keyinchalik ham qing'ir ishga qo'l urmoqchi bo'lganimizda, darrrov o'sha Maxsum akaning ko'zimizdan olov chiqqudekk tushirgan tarsakisi yodimizga kelaverdi. Afsuski, bugun orangizda qo'li egri bolalar

ham uchrab turadi. Ota-onasini o'qishga, bilim olishga ketayapman, deb aldab, kompyuter o'yinlari o'ynab, pana-pana joylarda sigaret chekib, darsga kirmaydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Aziz bolajonlar, qo'li egrilik, bezorilik oqibatida qanchadan qancha tengdoshlar ringizning hayoti izidan chiqayapti. O'smirlik inson umrining eng murakkab davri. Gohida yuragingizga qil ham sig'maydi. O'qish-o'rganishdan zerikasiz. Shunda o'zingizni biroz chalg'iting. Biorta daraxt yoki gul ekib, foydali ish qiling. Maqola, she'r yoki hikoya yozib ko'ring, siz buni, albatta, uddalaysiz. Bolalikda yegan tarsakimning zarbini hamon his qilishim bois bir qancha she'r qoraladim. Marhamat, siz ham o'qib ko'ring:

Hali-hamon tarsaki,
Lovullatar yuzimni.
Men undan xafamasman,
U ochgandir ko'zimni.

BOBOMNING DEGANLARI

– Bobo, nega dehqonning,
Hech ketmoni zanglamas?
Bu oddiy haqiqatni,
Dangasalar anglamas.

– O'g'lim, halol mehnatda,
Har qanday ishning tili.
Bilim-u layoqatda,
Mo'jizalarining siri.

Abdusamat YUNUSOV,
Xalq maorifi a'lochisi, faxriy muallim



SPORTNING SEHRLI OLAMI

Barchamizga ma'lumki, sog'lom bo'lishning asosiy vositasi jismoniy tarbiya va sport sanaladi.

Shu bois, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusga yoshlarni jismonan chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun ularga zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan yo'naliш ham kiritilgan.



qizlarning jismoniy tarbiya darsiga qiziqishi ortib boryapti. 8-«A» sinf o'quvchisi Aziza Sayfullayeva, 11-«V» sinf o'quvchisi Shohsanam Hamroyeva yengil atletika musobaqasi bo'yicha shaharda birinchilikni qo'ldan berishmayapti. 6-7-sinf o'quvchilar futbol, «Quvnoq startlar» musobaqalarida, 8-9-sinf o'quvchilar shaxmat-shashka, 10-11-sinf o'quvchilar voleybol, futbol musobaqalarida shahar miy-yosida sovrinli o'rirlarni egallab kelishyapti. Sportdagagi yutuqlarimiz evaziga qo'lg'a kiritilgan maqtov yorliqlari, sovrinlarimizni ko'rsangiz, ko'zingiz quvonadi.

Men maktabimizdagi «Saxovat» futbol jamoasiga ham rahbarlik qilaman. Jamoa a'zolaridan Murod Imomaliyev, Abdulaziz Nosirov, Og'abek Qudratov darvozabon, hujumchilikni qoyillatishadi. Saidjon Saidjonov, Shahzod Yusufxo'jayev, Odil Baxtiyorov kabi o'quvchilar esa voleybol, futbol o'yinlarida jamoa birinchiligi munosib hissa qo'shishadi. Maqsadimiz o'quvchilarni yoshlikdanoq sportga oshno qilib, ularning sog'lom, tetik, baquvvat bo'lib ulg'ayishlariga hissa qo'shishdir.

Farhod TOJIYEV,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
196-umumta'lum maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

KUMUSH QISH MANZARALARI

*Mana, kumush qishning so'nggi oyi ham o'tib bormoqda.
Bu fasl naqadar maftunkor, jozibali, to'g'rimi? Mening
sevimli faslim ham aynan kumush qishdir.*

Men uning ta'rif-yu qiyosini izlar ekanman, oila a'zolaram bilan bog'liq quydagi manzaralar ko'z oldimga keladi. Yog'ayotgan qor buvijonimning par ko'rpalari, onajonimning bizga shirmoy kulcha yopish uchun elakdan un elayotganlariga o'xshaydi. Zamin esa bobojonim sochlaridek oppoq qorga burkanadi-yu qoldi. Tunda guvillaryigan bo'ronlar daraxtlarga alla aytayotgandek, go'yo. Qish fasli



boshqa fasllardan musaffo havosi, beg'uborligi bilan ajralib turadi. Uning kunlari-yu tunlari sovuq, ayozli bo'lsa-da, o'zining ajib manzaralari bilan har qanday inson qalbini ilitib, xushkayfiyat bag'ishlaydi. Men qishni ana shunday xislatlari uchun sevaman!

Laylo
ABDUSAMATOVA,
poytaxtimizning
Yashnabad
tumanidagi
153-umumta'lum
maktabining
7-«A» sinf
o'quvchisi



Maktabimizda «Jasorat» nomli vatanparvar guruhi faoliyati yo'lda qo'yilgan. Uning tashkil etilishida O'zbekiston Ekologik partiysi Sergeli tuman Kangashi raisi Erkin Talbabayevning hissasi katta.

Bugun bu guruh a'zolari darsdan bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazish bilan birga, sohaning sir-sinoatlarini mukammal o'rganishmoqda. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari Munira Yusupova esa guruh rahbarlariga turli ko'rsatmalar berib kelayapti.

Yaqinda bo'lajak harbiylarimiz O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Toshkent harbiy okrugida tashkillashtirilgan tadbirda ishtirot etishdi, harbiy okrugda tahsil olayotgan akalarining mashg'ulotlari bilan tanishishdi.

Kuni kecha esa Sergeli tuman prokuraturasi tomonidan ana shu o'quvchilarga ovoz kuchaytirgich va mikrofon sovg'a qilindi. Endi ular harbiy kuy-ko'shiqlarni baralla aytishlari mumkin.

Har bir tadbirdan so'ng o'quvchilarimning taassurotlari bilan qiziqaman, Ulardan biri Javohir Husenov birinchilardan bo'lib so'z boshlaydi:

– Ustoz, men kelajakda harbiy bo'lishni orzu qilaman. Shuning uchun ham maktabimizdagi vatanparvar to'garagiga qatnashayotganimdan juda xursandman. Harbiy okrugda o'qiyotgan akalarimni ko'rib, bu kasbga bo'lgan havasim yanada oshdi.

Ko'zlar yonib turgan o'quvchilarning so'zlarini tinglar ekanman, yangi-yangi tadbirlar, sayohatlar uyushtirishni rejalay boshladim. Toki bo'lajak yurt posbonlari, Vatan himoyachilarining ishtiyoqi so'nmasin, deyman.

Tamara AHMEDOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
300-DIUМning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BIZ SAVODXON BOLALARIMIZ

Assalomu alaykum, hurmatli «Tong yulduzi» gazetasining ijodiy xodimlari! Bu nashr mening sevimli gazetam.

Avvallari uni menga buvim o'qib berardilar. Endi esa men va sinfdoshlarim nafaqat darsliklarimizni, balki kitoblarni ham hech tutilmay, burro-burro o'qiy olamiz. Yaqinda «Savodxonlik bayrami»ni o'tkazdik, ona tili, o'qish va matematika fanlaridan oлgan bilimlarimizni barchaga namoyish etdik. Tadbirda biz harflar siymosida sahnaga chiqib, Vatan, do'stlik, ona haqida she'rlar yod oldik. «Bo'g'irsoq» va «Sholg'om» ertagini sahnalashtririb, rollar ijro etdik. Maktabimiz rahbari, ota-onalarimiz bizni savodxon bo'lganimiz bilan tabriklashdi. Ustozimiz Dilafro'z Bekchanova bizga faxriy yorliq va sovg'alar topshirdi.



Aborbek JUMANAZAROV,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
40-umumta'lum maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi


“HAYOT MAKTAB”GA TAYYORLAYDI



Pazandalig-u sarishtalik har bir qizning orzusi, shunday emasmi? Maktabimizning 11-sinf qizlari, o'quv maskanimizda tashkil etilgan «Hayot maktabi» to'garagiga qatnay boshladilar. To'garakda ular etika-estetika, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizga amal qilish, nutq muomalasi, pazandalik, tikish-bichish

«Q» HARFLI CHAYNVORD

Chizmaga «Q» harfi bilan boshlanuvchi oltita so'zni yozish bilan so'z boyligingizni sinab ko'ring.



Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'lifi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
da 0208-raqam bilan 2019-yil
10-iyunda ro'yxtidan o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SATULLAYEV,

Murtaza SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 10001.

Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Addasi - 5234
Buyurtma - V 4069

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilnadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylyashitirgan
tashkilot javobiga:
Shakhi A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxa:
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.

Toshbirish vaqt - 18:00
Toshbirildi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08

hamda ruh-shunoslik mashg'ulotlaridan saboq olyaptilar.

Shunisi e'tiborlikki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus doirasida tashkil etilgan ushbu to'ga-

rakning a'zolari maktabni bitirish asnosida hunarli ham bo'lisladi.

- Ushbu to'garakning tashkil etilgani biz uchun ayni muddao bo'ldi. Mashg'ulotlarining malakali ustozlar tomonidan o'tilishi, har birimiz bilan alohida ishlashlari, darsdan so'ng bo'sh vaqtimizning mazmunli o'tishi bizga ham, ota-onalarimizga ham ma'ql bo'imoqda, - deydi 11-sinf o'quvchisi Nargiza Xolmuhammedova.

Men bu qizaloqlarning to'garak mashg'ulotlaridan olgan saboqlarini amalda qo'llab, kelgusida epli bekalar bo'lishlariga ishonaman.

Ziyoda ROZIQOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
262-umumta'llim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

“ZEBRA” TORTI

Bugun sizlarga oq-qora ko'rinishdagi «Zebra» tortini tayyorlashni o'rgatamiz. Tort uchun kerakli masalliqlar:



5 dona tuxum, 1,5 stakan shakar, 1 stakan kefir, 2,5 stakan un, 0,5 stakan o'simlik yog'i, 2 choyqoshiq kakao, 1 choyqoshiq iste'mol sodasi, 1 choyqoshiq sirka.

Tuxumni chuqurroq idishga solib, bir xil ko'rinishga kelguncha 5 daqiqa davomida ko'prtiramiz. Unga kefir, shakar va o'simlik yog'i, uksus bilan so'ndirilgan iste'mol



sodasini solamiz. Aralashtirgach, teng-ikkiga bo'lamiz. Uning bir qismiga kakao qo'shib, gaz patnisiga har ikkala masalliqdan ikki qoshiqdan navbatma-navbat solamiz. Endi uni 180 haroratda qizdirilgan gaz pechiga qo'yamiz hamda 30 daqiqa davomida pishiramiz.

Pishgan tortni sovuvgach, likopchalarga solib, issiq choy yoki kofe bilan dasturxonga tortishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



1901-yilda amerikalik bir masxaraboz o'zining ilk chiqishini namoyish etdi. U sirk sahnasi ga chiqib, chang to'la gilamni argonga osib qo'ydi-da, shunday dedi: «Mening aylom mana shu gilamni urib, qoqib tozalashga meni majburlamoqchi bo'ldi. Men esa o'zimni urintirmaslik uchun elektr nasos-kompressordan foydalandim. Hozir siz uning qanday ajoyib tarzda ish-lashini ko'rasiz!» Masxaraboz kompressorni ishga soldi va undan chiqqan shlang uchini gilanga yaqinlashtirdi. Shunda gilamning orqa tomonidan bulut kabi chang chang chiqqa boshladi.

Buning oqibatida birinchi qatorda o'tirgan tomoshabinlar chang yutib, yo'talib, aksira boshladilar. Chang yutib jabrlanganlar orasida muhandis Gerbert But ham bor edi. Shunda muhandis chang-to'zon ko'tarmasdan ham gilamni tozalash mumkinmi, deya o'ylab goldi va shu sirk namoyishidan keyin insonlarga zarar yetkazmaydigan changyutgichni ixtiro qildi. Demak, zamonaviy changyutgich yaratish g'oyasi sirk maydonida tug'ilgan ekan.

ZUHRA tayyorladi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'lifi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
da 0208-raqam bilan 2019-yil
10-iyunda ro'yxtidan o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SATULLAYEV,

Murtaza SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

TAHIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SATULLAYEV,

Murtaza SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 10001.

Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Addasi - 5234
Buyurtma - V 4069

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilnadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylyashitirgan
tashkilot javobiga:
Shakhi A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxa:
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.

Toshbirish vaqt - 18:00
Toshbirildi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08